TARIX

UDK: 94(575.121) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol30_iss1/a47**

AMIR TEMURNING XITOY YURISHIGA OID BA'ZI MULOHAZALAR

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ПОХОДЕ АМИРА ТЕМУРА В КИТАЙ

SOME REFLECTIONS ON AMIR TEMUR'S CAMPAIGN IN CHINA

Usmonov Bahriddin Ahmedovich[1]
[1]Farg'ona davlat universiteti professori

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur tomonidan Xitoyga qarshi yurish qilish uchun olib borgan tayyorgarlik tadbirlari, ushbu yurishdan ko'zlangan maqsadlar haqida so'z yuritilgan. 1397–1398-yillarda Mo'g'uliston xonligi bilan nikoh ittifoqining tuzilishi, Mo'g'uliston bilan chegaralarda harbiy istehkomlarning bunyod etilishi, 1402-yili Xalil Sultonning Anqaradan Turkiston hududiga Xitoyga olib boradigan yo'llarni himoya qilish topshirig'i bilan yuborilishi, Farg'ona vodiysiga Mirzo Iskandarning hokim etib tayinlanishi, 1403-yili Ashpara hokimi amir Ollohdodning Kichik Osiyoda turgan Amir Temurga yuborilgan Xitoygacha bo'lgan yo'llarning holati haqidagi hisoboti Amir Temur tomonidan Xitoy yurishini amalga oshirish yo'lidagi tadbirlarining ketma ketligi xususida fikr yuritishga imkon berishi ta'kidlanadi. 1404-yili Amir Temur farmoni bilan Movarounnahrning sharqiy hududlari, Mo'g'uliston hamda Sharqiy Turkistonning Mirzo Ulug'bek va Mirzo Ibrohimga suyurg'ol qilib berish to'g'risidagi farmoni esa Xitoy yurishidan ko'zlangan maqsadlarni aniqlashga xizmat qilishi ko'rsatib o'tilgan.

Аннотация

В данной статье излагаются подготовительные мероприятия, предпринятые Амиром Темуром перед походом на Китай, а также ставки, сделанные перед этим мероприятием. Эти действия включают заключение брака с монгольским ханством в 1397-1398 годах, возведение военных укреплений на границах с Монголией, отправку Халил-Султана из Анкары на территорию Туркестана в 1402 году с заданием охранять дороги, ведущие в Китай, назначение Мирзы Искандара наместником Ферганской долины, и направление отчета правителя Ашпара к Оллохдода о состоянии дорог до Китая в 1403 году Амиру Темуру, находившемуся в Малой Азии. Предпринятые шаги Амира Темура на пути к реализации Китайского похода заслуживают внимания и анализа. Кроме того, в 1404 году указом Амира Темура восточные территории Мавераннахра, Монголии и Восточного Туркестана были переданы суюргалу Мирзе Улугбеку и Мирзе Ибрагиму.

Abstract

This article, describes about the preparatory activities carried out by Amir Temur for the campaign against China, the goals of this campaign. In 1397-1398, the formation of a marriage alliance with the Khanate of Mongolia, the construction of military fortifications on the borders with Mongolia, in 1402 Khalil Sultan was sent from Ankara to the territory of Turkestan with the task of protecting the roads leading to China, Farghana valley. The appointment of Mirza Iskandar as the governor of the valley, the report of Ashpara governor Amir Allahdad in 1403 to Amir Temur, who was in Asia Minor, about the condition of the roads to China, allows us to think about the sequence of actions taken by Amir Temur towards the implementation of the Chinese campaign is keyed. In 1404, Amir Temur's decree on giving the eastern regions of Movarunnahr, Mongolia and Eastern Turkestan as vassals to Mirza Ulugbek and Mirza Ibrahim serves to determine the goals of the Chinese campaign.

Kalit so'zlar: *Amir Temur, Mirzo Muhammad Sulton, Mirzo Iskandar, Xalil Sulton, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Ibrohim, Xitoy, Turkiston, Ashpara, Farg'ona, Mo'g'uliston, Koshg'ar, suyurg'ol, Buyuk Ipak Yo'li.*

Ключевые слова: *Амир Темур, Мирза Мухаммад Султан, Мирза Искандар, Халил Султан, Мирза Улугбек, Мирза Ибрагим, Китай, Туркестан, Ашпара, Фергана, Моголистан, Кошгар, Суюргул, Великий Шелковый путь.*

Key words: *Amir Temur, Mirza Muhammad Sultan, Mirza Iskandar, Khalil Sultan, Mirza Ulughbek, Mirza Ibrahim, China, Turkestan, Ashpara, Ferghana, Mogolistan, Koshgar, Suyurgol, Great Silk Road.*

KIRISH

Hozirgi kunda tarix fanida Amir Temurning deyarli barcha yurishlarining bosh maqsadi – Buyuk Ipak yo'lini yana Movarounnahr hududiga burish, uning ustidan to'la hukmronlik o'rnatish va xavfsizligini ta'minlash maqsadida olib borilganligi, oldindan tuzilgan puxta rejalar asosida amalga oshirilganligi e'tirof etiladi. Chunki Amir Temur Buyuk Ipak yo'li Movarounnahr iqtisodiyotining gullab-yashnashi uchun asosiy qon tomiri vazifasini bajarishini juda yaxshi tushunar edi. Yuqoridagi fikrlarimizni asoslash uchun Amir Temurning so'nggi, amalga oshmagan Xitoy yurishini olaylik. Bu yurish Buyuk Ipak yo'lining Xitoygacha bo'lgan, asosan, karvon yo'llari xavfsizligiga tahdid soluvchi ko'chmanchilar yashaydigan qismi ustidan to'la hukmronlik o'rnatib, uning to'la

xavfsizligini ta’minlashni mo‘ljallagan edi. Chunki yurish oldidan hali bosib olinmagan, lekin bosib olish mo‘ljallangan Xitoygacha bo‘lgan yerlar Ulug‘bek mirzo va Ibrohim mirzoga bo‘lib berilganligi fikrimizni tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Amir Temurning Xitoy yurishiga tayyorgarlik borasida olib borgan ishlari va undan ko‘zlagan maqsadlari tarixshunosligimizda alohida tadqiq etilmagan. V.V. Bartold, A.Y. Yakubovskiy, Beatris Forbis Mans, B. Ahmedov va boshqalarning asarlarida ushbu masala bo‘yicha ba’zi bir qaydlarni uchratishimiz mumkin [8; 9; 10; 11]. Biz ham temurshunoslikning boshqa muammolariga oid tadqiqotlarimizda masalaning ayrim jihatlari hususida fikrlarimizni bildirganmiz [2; 12; 13].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Amir Temur 1397–1398-yil qishini Toshkent viloyati Chinoz yaqinida yangi barpo etilgan qishloqda o‘tkazadi. Aynan shu qish faslida mamlakatning sharqiy hududlari, jumladan, Farg‘ona uchun muhim bo‘lgan bir necha qarorlar qabul qilinadi. Birinchidan, mazkur yil qishida Amir Temur Mo‘g‘uliston xoni Xizr Xojaxonning qizi To‘kal xonimga uylanadi va bu bilan ikki qo‘shni davlat o‘rtasidagi aloqalar yanada mustahkamlanadi. Bu shubhasiz, Farg‘ona vodiysi xavfsizligi uchun ham muhim edi.

Ikkinchidan, 1398-yilning fevral oyida Amir Temur farmoniga ko‘ra, valiahd shahzoda Mirzo Muhammad Sulton bir necha nomdor amirlar hamrohligida Mo‘g‘uliston bilan chegaralarni mustahkamlash uchun yuboriladi. “Oftob hut burjiga yetkonda (19 fevral) Amir Temur hukm qildikim, – deb yozadi Sharafuddin Ali Yazdiy, – “Amirzoda Muhammad Sulton Mo‘g‘uliston sarhadiga borib, zabtig‘a mashg‘ul bo‘lsinlar!” va Ashparada qal’a solib, ziroat qildurg‘ay. Va Berdibek Sari Bug‘a va amir Hoji Sayfuddin va Xudoydodi Husayniy va amir Shamsiddin Abbos va o‘zga beklarni qirq ming kishi bilan shahzodaning mulozamatiga qo‘ydi. Bas alar yurub, Qulon uqbasidan o‘tub, Ashparaga yetib, anda tushtilar va imorat va ziroatqa mashg‘ul bo‘ldilar” [1: 191]. Bu Xitoy yurishiga tayyorgarlikning boshlanishi edi [2: 73-75]. Lekin shu bilan birgalikda Mo‘g‘uliston chegaralarida dehqonchilik hududlarining kengaytirilishi va uning rivojlanishiga sharoitlarning yaratilishi, harbiy qal’alarning qurilishi Movarounnahrning sharqiy chegaralaridagi viloyatlar, jumladan, Farg‘ona vodiysi xavfsizligini ta’minlash yo‘lidagi yana bir muhim qadam edi. Chunki Ashpara qal’asi va uning atroflarini mo‘g‘ul amirlari o‘z hududi, deb hisoblar, bu joylar orqali Movarounnahrga bosqinchilik yurishlari uyushtirardi. Shuning uchun mazkur bunyodkorlik ishlari Mo‘g‘uliston hukmdorlarining Movarounnahrning o‘troq hududlaridan yanada uzoqlashtirdi. Valiahd shahzodaning 1398-yil fevralidan 1399-yil may oyiga qadar Mo‘g‘uliston chegaralarida bo‘lishi bu vazifaga naqadar mas’uliyat bilan qaralganini ko‘rsatadi. Mirzo Muhammad Sulton faqatgina Amir Temurning yetti yillik yurishga ketishi munosabati bilan Samarqandni boshqarib turish uchun chaqirib olinadi. Amir Temur Hindiston yurishiga ketgan vaqtda Samarqand boshqaruvi Mirzo Mironshohning o‘g‘li mirzo Umarga topshirilgan edi. Mirzo Mironshoh o‘z mulklarida boshqaruvni izdan chiqarganligi ma’lum bo‘lganidan keyin, Amir Temur Movarounnahrni boshqarib tajriba to‘plagan mirzo Umarni o‘zi bilan Ozarbayjonga olib ketishga qaror qildi va uning o‘rniga Muhammad Sulton chaqirildi.

Amir Temur 1399-yili yetti yillik yurishni boshlashdan avval Movarounnahrning sharqiy chegaralaridagi viloyatlarda ma’muriy o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Valiahd Mirzo Muhammad Sulton Samarqandga chaqirib olinganidan so‘ng ham mamlakatning sharqiy chegaralari shahzodasiz qolmadi. Farg‘ona vodiysini boshqarish marhum Mirzo Umarshayxning o‘g‘li 15 yoshli Mirzo Iskandarga topshirildi. Bu haqida faqat tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiygina ma’lumot qoldirgan: “Amir Temur amirzoda Muhammad Sultonni Turonzaminning zabti uchun saltanat sariri Samarqandda qo‘ydi. Berdibek Sari Bug‘a va amir Hoji Sayfuddin va Xudoydodi Xusayniy va amir Shamsiddin Abbos va Siddiq Tobon va Arg‘unshoh Axtachi va Ilyosxoja va Shayx Ali Bahodur va o‘zga beklarkim, bular mo‘g‘ul sarhadining zabtig‘a mashg‘ul erdilar, alarni o‘shanda qo‘ydi. Va amirzoda Iskandar ibn Umarshayxni (Andigon tarafga) ul viloyat (sarhadining zabti uchun) yibardi” [1: 225]. Hofizi Abru amirzoda Iskandar bahodir yosh bo‘lishiga qaramasdan Mo‘g‘uliston zabti uchun u yer(Mo‘g‘uliston)ga yuborilgan, deb bayon qilgani holda, asarining boshqa bo‘limida uning turar joyi Andijon bo‘lganligini ta’kidlagan [3: 883, 938-939]. Shu o‘rinda uning amir Xudoydod Husayniy va amir Shamsuddun Abboslarning Mirzo Iskandar xizmatiga belgilanganli xususidagi ma’lumoti ishonarli emas. Chunki ular bu vaqtda Ashparadagi harbiy kuchlar tarkibida bo‘lgan.

Abdurazzoq Samarqandiyda esa Mirzo Iskandar Andijon va Mo‘g‘ulistonga yuborilganligi qayd etilgan [4:225]. Mirzo Iskandarning Hofizi Abru va Samarqandiydagi Mo‘g‘ulistonga yuborilganligi haqidagi ma’lumot uning ko‘p o‘tmay bu o‘lkaga yurish qilganligi yoki vodiyning Mo‘g‘uliston bilan chegaralidagi vaziyatga ham mas’ulligi bilan natijasida kelib chiqqan, deb o‘ylaymiz.

Shunday qilib, 1393–1399-yillarda amirlar tomonidan boshqarilgan Farg‘ona vodiysida 1399-yilning yozidan markaziy hokimiyatga bo‘ysunadigan Mirzo Iskandar hokimligidagi ulus tashkil etildi. Mirzo Iskandarga ham o‘z vaqtida otasi Mirzo Umarshayxga topshirilgani kabi Mo‘g‘uliston bilan chegaradosh hududlar xavfsizligiga e’tibor qaratish, Mo‘g‘ulistondagi vaziyatni doimo nazorat qilib borish, u yerda temuriylarga nomaqbul vaziyatni paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, Mo‘g‘uliston chegaralarida, jumladan, Ashpara atroflarida turgan amirlar bilan o‘z harakatlarini muvofiqlashtirib borish vazifalari yuklangan edi. Mirzo Iskandarga aynan shunday vazifalar topshirilganligini keyingi voqealar rivoji tasdiqlaydi.

Amir Temur Farg‘onani yana alohida ulus sifatida shakllantirib, uni shahzodalardan biriga suyurg‘ol qilib berish orqali nimalarni maqsad qilganligi xususida mulohaza qilib ko‘rish lozim.

Xususan, bu vaqtda Farg‘ona vodiysini yagona kuchli hokimlik sifatida yana qayta tashkil etishni talab qiladigan tashqi siyosiy vaziyat mavjud emasdi. Chunki Mo‘g‘uliston tomondan harbiy xavf bu davrda to‘liq yo‘qolgan edi. Shunday ekan, tashqi xavfga qarshi mustahkam himoya masalasi ishonchli javob bo‘la olmaydi.

1404-yili Farg‘ona vodiysini Sharqiy Turkiston bilan birgalikda Ibrohim mirzoga, Movarounnahrning shimoli-sharqiy qismini Mo‘g‘uliston bilan birga Mirzo Ulug‘bekka suyurg‘ol etib berilishi ba’zi mulohazalarni bildirishimizga imkon beradi. Amir Temur 1398-yildan boshlab Xitoy yurishiga jiddiy tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Shu maqsadda u Mo‘g‘uliston bilan chegaradosh hududlardagi shaharlarni qayta tiklagan hamda ularning atrofida dehqonchilik hududlarini kengaytirishga, o‘troq aholi nufuzini oshirishga e’tibor qaratgan. Amir Temur Xitoygacha bo‘lgan yerlarni zabt etib, shu hududlarda Toshkent, Sayram va Farg‘ona vodiysi shaharlarini ham o‘z ichiga olgan dehqonchilik va chorvachilik voha-vodiylardan iborat ikkita ulus tashkil etishni niyat qilgan ko‘rinadi. Agarda bu uluslar tashkil etilsa, Mo‘g‘uliston to‘la zabt etilib ikkiga bo‘lib yuborilar, Xitoygacha bo‘lgan yerlar temuriylar qo‘liga o‘tib, Buyuk ipak yo‘lining Xitoy chegaralaridan to O‘rta yer va Qora dengiz sohillarigacha bo‘lgan qismlarida to‘la xavfsizlik o‘rnatilardi. Shuningdek, bu ikki ulusning mavjudligi ko‘chmanchi mo‘g‘ullarning Movarounnahrga talonchilik yurishlari xavfini kelajakda ham bo‘lmasligini kafolatlar edi. Aynan shu g‘oyani amalga oshirish yo‘lida dastlabki qadam Mirzo Iskandarga Farg‘ona vodiysini suyurg‘ol qilib berilishi bo‘lgan, deb o‘ylaymiz. Ko‘p o‘tmay, bu ulus Samarqand noibi mirzo Muhammad Sulton tomonidan tugatilgan bo‘lsa-da, Yetti-yillik yurishga ketayotib Farg‘ona ulusini tashkil etgan Amir Temur, ushbu yurishdan qaytib kelishi bilanoq yuqorida aytilgan shaklda bu ulusni yana tuzishga qaror qilganligi ham bizga shunday mulohaza yuritish imkornini beradi.

Sohibqironning Turkiyadagi harbiy yurishlari davom etayotgan 1403-yildayoq Ashpara hokimi Ollohdod Amir Temur buyrug‘iga ko‘ra Xitoyga olib boradigan yo‘llar geografiyasi, iqtisodiy resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘playdi va yo‘llar xaritasini tuzib, bularning hammasini Sohibqiron huzuriga jo‘natadi. Bu ma’lumotlar haqida Ibn Arabshoh shunday yozadi: “Xuddi Temur buyurgandek, sharqu g‘arbini, uzoq-yaqinligini, o‘ngu chapligini, tekisu tog‘ligini, bo‘yiyu eni, pastu balandini, daraxtsiz va daraxtli joylarini, yerini, buloqma-buloq manzilma-manzil qilib ochiq-oydin ko‘rsatdi” [5:].

Anqara jangi yakunlangach Xalil Sulton Amir Temur farmoniga ko‘ra Movarounnahrning shimoli sharqiy sarhadlari himoyasiga rahbarlik qilish uchun yuboriladi. Alqissa, hukm bo‘ldikim, – deb yozadi Yazdiy, “Amirzoda Xalil Sulton cheriki bilan Samarqand sori mutavajjih bo‘lsun va andin o‘tub Turkiston sarhadig‘a borib, andag‘i yo‘llarni muhofizat qilsunlar. Va beklardin Mubashshirbek va Davlat Temur tavachi aning birla biyla borsunlar” [1: 262]. Shomiy esa ushbu voqeani quyidagicha bayon qiladi: “Ikkinchi tomondan ulug‘ amirzoda Xalil Sultonga amr etildiki, u Samarqand tomon jo‘nab, bu yorqin g‘alaba va fathu zafar xabarini u tomonlarga yetkazgay. Davlat Temur ham uning hamrohligida ravona bo‘lsin va (birgalashib) to Xitoy sarhadigacha chopqin yasab, u tomonni muxoliflardan tamoman tozalasinlar”[6: 337].

Har ikki manbadagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, Amir Temur 1402-yildagi Anqara jangi tugashi bilanoq Xitoy yurishiga tayyorgarlikning navbatdagi bosqichini boshlaydi. Yurishga

tayyorgarlik ko‘rish amirzoda Xalil Sultonga topshiriladi. U Turkistonga yetib borib, Oqsulotga joylashadi[7:313]. Uning Xitoy chegaralari tomon chopqin qilganligi xususida ma’lumotlar yo‘q. Shuning uchun Xalil Sulton asosan Movarounnahrning shimoli-sharqiy hududlaridagi Xitoyga olib boradigan yo‘llar xavfsizligini ta’minlash va qo‘shin safarni boshlaganda muammoga duch kelmasligi uchun ta’minot masalalarini hal qilish bilan shug‘ullangan bo‘lishi kerak.

Amir Temur 1404-yili Samarqandga yetib kelgach, Xalil Sulton yirik amirlar bilan birgalikda hukmdor huzuriga boradi va to‘y bahonasida tashkillangan quriltoyda qatnashadi. Quriltoyda Xitoy yurishi muhokama qilinib, tashkiliy masalalar bo‘yicha topshiriqlar beriladi. Manbalarda ta’kidlanishicha, Xitoy yurishiga 200 ming kishilik lashkar safarbar etiladi [1: 292]. Qo‘shinning o‘ng qanotiga rahbarlik qilish Xalil Sultonga yuklatiladi. “Hukm bo‘ldikim, “Amirzoda Xalil Sulton (va amirzoda Ahmad Umarshayx va beklardin Xudoydod Husayniy va Shamsiddin Abbos va tumonot va hazarijot beklaridin bila Toshkand va Shohruxiya va Sayramda qishloq qilsunlar”, – deb yozadi Sharafuddin Ali Yazdiy. Bu ma’lumot amirzoda Xalil Sultonning bo‘lajak yurishda eng muhim sarkardalardan biri bo‘lishi, qo‘shinning uchdan bir qismi unga bo‘ysunishi belgilanganligini ko‘rsatadi.

Bu davrda Sohibqiron o‘zining asosiy kuchlarini Xitoy yurishiga tashlanishiga halaqit berishi mumkin bo‘lgan g‘arbiy hududlardagi siyosiy raqiblari – Bog‘dod, Misr va Turkiya hukmdorlari bilan kurash olib borib, ularni to‘la tor-mor etadi. Shundan so‘nggina 1404-yil oxirida Xitoy yurishiga otlanadi.

XULOSA

Demak, ko‘rinib turibdiki, Amir Temur birgina Xitoy yurishining o‘ziga uzoq yillar, 1398-yildan boshlab 7 yil davomida puxta tuzilgan bosh reja asosida tayyorgarlik ko‘rib borgan. Xitoy yurishiga tayyorgarlikning o‘zi quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lgan:

1. 1397-1398-yillar. Bu davrda Movarounnahrning sharqiy chegaralari mustahkamlangan, Mo‘g‘uliston bilan chegarada mustahkam harbiy istehkomlar bunyod etilgan. Mo‘g‘uliston xoni Xizr Xojaxon bilan nikoh ittifoqi tuzilgan. 40 ming kishilik harbiy kontingent Mo‘g‘uliston chegarasiga joylashtirilgan.
2. 1399-1400-yillar. Bu davrda Farg‘ona vodiysiga Mirzo Iskandar hokim etib tayinlangan va uning bilan birga vodiyga ma’lum bir harbiy kontingent joylashtirilgan. 1399-yili Mo‘g‘uliston xoni Xizr Xojaxonning vafoti vaziyatni o‘zgartirgan. Mirzo Iskandan Sharqiy Turkistonga muvaffaqiyatli yurishni amalga oshirgan. Bu yurish Xitoy yurishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash ham Xitoygacha bo‘lgan cho‘l hududlarida jang qilish bo‘yicha zarur tajriba to‘plash imkonini bergan.
3. 1402-1404-yillar. Anqara jangi yakunlanishi bilanoq Xalil Sulton ma’lum miqdordagi qo‘shin rahbari sifatida Turkiston viloyatiga jo‘natilgan va Xitoy yurishi oldidan yo‘llarni ko‘rib chiqish va zahira tayyorlash bilan shug‘ullangan
4. 1404-yilning oxiri va 1405-yilning boshlarida yurishga so‘nggi tayyorgarlik ishlari olib borilgan. 200 ming kishilik qo‘shin juda katta oziq ovqat, yem-xashak va qurol yarog‘ zahirasi bilan Shohruhiya, Toshkent, Sayram, Turkiston, O‘tror, Sabron viloyatlari hududlariga joylashtirilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков, -Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.
2. Усмонов Б. Россия тарихшунослигида Амир Темур сиймоси. – Т.: Фан, 2011. – 128 б.
3. 1380 حافظ ابرو. زوبة التواريخ. مقدمة، تصحيح و تعليقات: كمال حاج سيد جوامى. در چهار جلد. تهران،
4. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи садъайн ва мажмаи бахрайн. Қўлёзма. مطلع السعدين و مجمع البحرين عبدالرزاق سمرقندوى АҚШнинг Мичиган университети кутубхонасидан олинган электрон нусха.
5. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари. /Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У. Уватов тайёрлаган. К. I. –Т.: Меҳнат, 1991. – 328 б.
6. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А. Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О. Бўриев -Т.: Ўзбекистон, 1996.
7. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 1272 б.
8. Бартольд В.В. Улугбек и его время. // Сочинения, Т.2, Ч.2. – М.: Наука, 1964. – С. 25-197.
9. Якубовский А.Ю. Темур давлати. Темурийлар даврида Мовароуннаҳр ва Хуросон. // Ўзбекистон ССР тарихи. I том. Биринчи китоб –Т., 1956. – Б. 345-418

10. Manz Beatrice Forbes. The rise and rule of Tamerlane. – Cambridge University Press, 1989. – 227 p.
11. Аҳмедов Б. Амир Темур. Тарихий роман. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1995. – 640 б.
12. Усмонов Б. Россия тарихшунослигида Амир Темур сиймоси. – Фарғона: “Фарғона”, 2019. – 288 б.
13. Усмонов Б. Амир Темур давлати. – Т.: Адабиёт учқунлари, 2016. – 126 б.